

AMIR TEMURMING SOLIQLARNI YIG`ISHDAGI ADOLATI

Turdaliyeva Gulasalxon Abdusalom qizi

FDU Tarix fakulteti Mustaqil izlanuvchi doktorant

Gulasalturdaliyeva886@gmail.com 998996004284

Annotatsiya: Amir Temur davrida aholidan yig`iladigan soliqlar va ularning turlari, soliq tizmi tartib-qoidolari, soliqlar miqdori haqida ma`lumotlar tarixiy manbalar va ilmiy adabiyotlar asosida yozildi.

**Kalit so`zlar:** kalontor, kadxudo, alafa, shilon, boj, sari shumor, moli jihat, xiroj, qo`nalg`a, savoriy.

Kirish: Soliq davlat yoki mahalliy boshqaruv faoliyatini ta`minlash uchun davlat organlari tomonidan tashkilot yoki jismoniy shaxslardan yig`ib olinadigan to`lovga aytiladi. Davlat budjeti daromadlar qismining asosiy manbai soliqlar hisoblanadi. Soliq ijtimoiy turkum sifatida, sof daromadning bir qismini budjetga jalb qilish shakli bo`lib, moliyaviy munosabatlarning tarkibiy qismini tashkil qiladi. Amir Temur davlatida ham soliqlar davlat budjetining asosiy qismini tashkil qilgan. Tarixiy ma`lumotlarga ko`ra bu davrda aholidan turli soliqlar yig`ib olingan. Bularga misol tariqasida xiroj, jizya, targ`u, ixrojot, avorizot kabi soliqlar aholidan undirilgan.

Asosiy qism: Ayrim podsholarning ulug`ligi ularning aslzodalik fazilatlaridandir va uni besh narsa bilan bilib bo`ladi. Birinchisi – fuqaroga ko`rsatgan marhamati, ikkinchisi – mamlakatni saqlab tura oluvchi adolati, uchinchisi – zolimning jabrini mazlumdan qaytara oluvchi haybati, to`rtinchisi – dushmanning makr-hiylasidan ogohlikka vosita bo`lishi, beshinchisi – fursatni g`animat bilishi uchun ish oqibatini ko`ra bilishidir. Amir Temur xuddi shunday hususiyatlarga ega bo`lgan hukmdorlardan biri edi. Biz uni quyida oliq-soliq masalarida olib borgan adolatli siyosati haqida yoritib o`tamiz.

Amir Temur jahondagi 27 ta davlatni bosqichma-bosqich o`z davlati tarkibiga kiritib, yagona davlat sifatida birlashtiradi va ularning moliya tizmini takomillashtiradi.[2]

Tarixiy manbalarda keltirilgan ma`lumotlarga qaraganda o`rta asrlarda o`tgan feodal davlatlarda, shuningdek, Temur va Temuriylar davlatida ham aholiga xiroj, moli jihat, ixrojot, tag`or, tamg`a, boj, sari shumor, alafa (ulufa), shilon kabi soliq va jarimalar olingan. [3] Xazina - asosan aholidan yig`iladigan soliqlar, fath etilgan shahar va mamlakatlardan undiriladigan o`lpon (moli omon) davlatga qarashli yerlar hamda boshqa mol-mulkdan kelib turadigan daromad hisobiga to`ldirilgan.

Xazina hamma vaqt podshoh va hukmdorlarning diqqat markazida bo'lgan.. xazinaning kamayib qolishi – deyiladi “Tuzuklarda”, - sipohning tarqalib ketishiga, sipohning tarqalib ketishi esa o'z navbatida saltanatning kuchsizlanishiga olib boradi. [4] Saltanatning ustuvorligi ko'p jihatdan raiyatga, uning hol ahvoli va saltanatga sadoqatiga bog'liq. Davlatning bor bo'lishida ham, yo'q bo'lishida ham o'sha raiyat, ya'ni qora xalq hal qiladi. Shuning uchun ham Amir Temur sipohiy bilan raiyatga bir ko'z bilan qaragan. Adolat va insof bilan ish tutib, qora xalqni ham, o'zidan rozi qilishga harakat qiladi. Biz uni oliq-soliq hususida tutgan siyosatida yaqqol ko'ramiz. Hususan xiroj olinadigan yer-suv odatda 3 ta darajaga bo'lingan. Birinchi darajali yerlardan xiroj olingan hosilning $\frac{1}{4}$ qismi, ikkinchi darajali yerlardan ikki harvor, uchinchi darajali maydonlardan bir xarvor miqdorida begilangan. Amir Temur ba'zi hollarda raiyatni savoriy, qo'nalga va shilon puli jarimalaridan ozod qilgan. Agar raiyat yuqorida ko'rsatilgan 3 usulda soliq to'lashga rozi bo'lmasa, u holda bir xarvor arpasiga 2,5 misqol kumush miqdorida narx qo'yilgan.

Amir Temur aminlar, kalontorlar va soliq yig'uvchilarni raiyat bilan insof va adolat doirasida munosabatda bo'lishiga, qonunga qarshi ish tutmaslikga chaqirgan. Amir Temur davrida raiyatni ya'ni oddiy xalqni himoya qilishni ham qonun bilan mustahkamlagan ...agar (har yer va yurtning) amaldorlari va kalontorlari oddiy fuqaroga jabr-zulm qilsa va shu orqali bechoralarga zarar-ziyon yetkazsa, yetkazilgan zararni (o'sha) kalontorlardan undirib, jabr ko'rganlarga bersinlar, toki ular qaytadan avvalgi ahvollariga kelsinlar. Agar kadxudu va kalontorlar (o'zidan) kichik martabadagi odamiga zulm qilgan bo'lsalar, qilgan zulmiga yarasha jarima solsinlar. Agar dorug'alar va hokimlar xalqqa jabr-zulm qilib, ularni xarob qilgan bo'lsalar, qilgan ishlariga loyiq jazo berilgan.

Kalontor – shahar yoki qishloq oqsoli

Kadxudo – oila, qishloq, jamoa boshlig'i

Amir Temur o'zidan oldingi bo'lgan soliqlar sari shumor (jon boshidan olinadigan soliq) va xona shumor (har bir xonadondan olinadigan soliq)dan xalqni ozod qiladi.

Ispaniya qirolini elchisi bo'lib kelgan Ruyi Gonazales Klavixoning bayon qilishicha “1404-yil 9-oktyabr kuni Amir Temur Samarqandda yo'q bo'lgan yillari qassoblarni go'shtni qimmat narxda sotganliklari uchun jazoga tortishni buyuradi, shuningdek moliga ortiq baho qo'yib sotagan kosiblar ham jazolangan”. [5]

Agar biror-bir amaldorning davlat mol-mulkini o'zlashtirib olgan mablag'I hisobidan, maoshidan ikki barobar ortiq bo'lsa, ortig'I navbatdagi maoshida ushlab qolingan, uch barobar ko'p bo'lsa hammasi saltanat xazinasiga tortiq

sifatida olingan. [6] “Amir temur tuzumi Movarounnahr uchun hech shubhasiz eng dabdabali davr bo`lib, turk xalqi uchun hech shubhasiz shunday ziyo berdiki, ba`zi qavmlar, ellar hozirgacha undan harorat oladilar” – deb yozgan edi bu haqida X. Vamberi. [7]

Qishloq xo`jaligi, hunarmandchilik savdodan umuman barcha daromadlar ustidan qattiq moliyaviy nazorat o`rnatiladi. Davlatning moliyaviy ahvoli, kirim-chiqimlar, soliqlar to`lovi devon taftish xizmati tomonidan tekshirilib turilgan, joylardan kelgan shikoyatlarni tekshirish uchun mahsus taftish komissiyasi yuborilgan va ular bergan xulosa asosida ish ko`rilgan. [8]

Amir Temur nafaqat o`z xalqini balki fatx etilgan boshqa mamlakatlarning xalqini ham imkoni boricha qonun himoyasiga oldi, ularni asirlik va talon-tarojlikdan saqladi.

Xulosa: “Buyuk shaxslarni tarix yaratadi deytilar. Bunga qo`shimcha qilib sohibqiron bobomizning suronli hayotini hayol ko`zgusidan o`tkazib buyuk shaxslarni millat qayg`usi, xalq dardi yaratadi deyish mumkin” deb ta`kidlagan edi birinchi prezidentimiz I. Karimov[1]. Temur davlati o`nlab davlatlarni, turli dinlarga, huquqiy tizimlarga e`tiqod qilgan, o`nlab xalqlarni o`z tartibiga birlashtirgan bo`lib, bunday davlat qonunchilik tizimisiz, yashay olmasdi,. Shunday vaziyatni hisobga olgan holda Amir Temur o`z davlati uchun qonun tizimlarini yaratdi. O`zbek davlatchiligi tarixining muhim davri Temur saltanati markazlashgan davlati tarixi edi. Saltanat quruvchisining fikricha davlat birinchi galda mamlakatdagi barcha ijtimoiy tabaqalarning mafaatlarni himoya qilishi, maslahat, kengash, tadbirkoqlik, qonun qoidalar va adolat bilan qatiiy tartibda boshqarilishi kerak.

Foydalanilgan adaiyotlar ro`yhati

1. I. Karimov Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. -5-tom, T;,”O`zbekiston”, 1992, 167-b.
2. Nizomiddin Shomiy Zafarnoma, t;,”O`zbekiston”, 1996, 88-bet.
3. Irpon To`xtiyev. Amir Temur va temuriylarning moliya-pul siyosati. T;,”O`zbekiston” 2006, 30b.
4. Bo`riboy Ahmedov. “Sohibqiron Amir Temur”, Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashri, T;-1996, 19-b, 88-b.
5. X. Vamberi Buxoro yohud Mozvarounnahr tarixi. – T;,”Adabiyot va san`at”, 1990, 56-b
6. Omonullo Bo`riyev. Sohibqiron Amir Temur, T;,”O`zbekiston”, 2011, 77-b.